V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QARSHIBOYEV OBID SHERQUL O‘G‘LI

PANJARADA ANIQLANGAN BA’ZI MODELLARNING GIBBS O‘LCHOVLARI UCHUN CHEGARAVIY KONFIGURATSIYALAR

01.01.01 –Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA

FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UDK: 517.98-519.21

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical-mathematical sciences

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

QARSHIBOYEV OBID SHERQUL O‘G‘LI

PANJARADA ANIQLANGAN BA’ZI MODELLARNING GIBBS O‘LCHOVLARI UCHUN CHEGARAVIY KONFIGURATSIYALAR

01.01.01 –Matematik analiz

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI BO‘YICHA

FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI

AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.3.PhD/FM622 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (резюме)) Ilmiy kengash veb-saytida (http://kengash.mathinst.uz) va "Ziyonet" ta'lim axborat tarmog'ida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Raxmatullayev Muzaffar Muxammadjanovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
Rasmiy opponentlar:	**Botirov G'olibjon Isroilovich** fizika-matematika fanlari doktori, katta ilmiy xodim
	Haydarov Farxod Halimjonovich fizika-matematika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil "11" fevral kuni soat 17:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9-uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ 198 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi, 9 uy. Tel.: (+998 71) 207 91 40).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "24" yanvar kuni tarqatildi.
(2025 yil "24" yanvar dagi 2- raqamli reestr bayonnomasi).

U.A. Rozikov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
f.-m.f.d., akademik

J.K. Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

U.U. Jamilov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., katta ilmiy xodim

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida olib borilayotgan fizik, biologik sistemalarning termodinamik xossalarini oʻrganishga bagʻishlangan bir qancha ilmiy-amaliy masalalar koʻpincha statistik mexanika modellarini tadqiq qilishga keltiriladi. Gibbs oʻlchovlari statistik mexanika modellarining faza almashishlari nazariyasini tadqiq qilish uchun asosiy vosita hisoblanadi. Shuningdek, kimyo, xizmat koʻrsatish nazariyasi, materialshunoslik kabi fan va texnikaning turli sohalaridagi muammolarni hal qilishda Gibbs oʻlchovlarini qoʻllash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Statistik mexanikaning klassik modellari uchun barcha Gibbs oʻlchovlari toʻplamini toʻliq tavsiflash masalasi hech bir model uchun bugungi kungacha toʻla hal qilinmagan. Shu bois, bunday modellar uchun Gibbs oʻlchovlari toʻplamini boyitish, jumladan, panjaralarda aniqlangan ba’zi modellarning Gibbs oʻlchovlari uchun chegaraviy konfiguratsiyalar toʻplamini topish masalasi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Hozirgi kunda panjarali sistemalar uchun tashqi maydonli Hamiltonianlarga mos translyatsion-invariant hamda davriy Gibbs oʻlchovlarini mavjudligini koʻrsatish va bunday Gibbs oʻlchovlari toʻplamini toʻla tavsiflash dolzarb masalalardan biridir. Berilgan fizik model uchun Gibbs oʻlchovlari toʻplamida translyatsion-invariant va davriy oʻlchovlarning yagona emasligini aniqlash statistik fizikaning faza almashishlari nazariyasida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada berilgan Hamiltonian uchun barcha translyatsion-invariant va davriy Gibbs taqsimotlarini topish, limit Gibbs oʻlchovlari translyatsion-invariant splitting Gibbs oʻlchovlari bilan mos keladigan chegaraviy konfiguratsiyalar toʻplamini tasniflash maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda taraqqiyotning asosiy tayanchlaridan biri boʻlgan fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega boʻlgan sohalarga e’tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, oxirgi yillarda Keli daraxtida aniqlangan statistik mexanikaning klassik modellari uchun translyatsion-invariant, davriy va davriy boʻlmagan Gibbs oʻlchovlari mavjudligini aniqlash hamda bunday oʻlchovlar toʻplamini boyitish borasida salmoqli natijalarga erishildi. “Algebra va uning tatbiqlari, differensial tenglamalar va uning tatbiqlari, chiziqsiz sistemalar, dinamik sistemalar, matematik modellashtirish, stoxastik tahlil, funksional analiz, tibbiy-biologik informatika, hisoblash matematikasi” fanlarining ustuvor yoʻnalishlari boʻyicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish matematika fanining asosiy vazifalari va faoliyat yoʻnalishlari etib belgilandi[1]. Qaror ijrosini ta’minlash uchun ilmiy natijalardan ilm-fanning turdosh sohalarida foydalanish maqsadida statistik mexanikaning klassik modellari uchun faza almashishlar nazariyasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PQ-4947-son “Oʻzbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boʻyicha harakatlar strategiyasi

[1] Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi №PQ-4387 “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qoʻllab-quvvatlash, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori.

to‘g‘risida”gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustivor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi.

Statistik mexanikaning asosiy masalalaridan biri berilgan sistemaning termodinamik muvozanatini tavsiflovchi Gibbs o‘lchovlarini tadqiq qilishdan iborat. Gibbs o‘lchovi ehtimollik o‘lchovi bo‘lib, u atrof muhit bilan termodinamik muvozanatda bo‘lgan sistemalarning holatini aniqlash maqsadida J.Gibbs tomonidan kiritilgan. Keyinchalik soha rivojlanib, alohida Gibbs o‘lchovlari nazariyasi shakllandi. Uning rivojlanishida E. Izing, R. Dobrushin, O. Lenford, D. Ryuel, R. Minlos R. Bekster, H.O. Georgi, V.A. Malishev, R.A. Minlos, K. Preston, Ya.G. Sinay, G. Gallavotti, F. Bonettolarning beqiyos xizmatlari asos bo‘ldi.

Klassik statistik mexanika modellarida Gibbs o‘lchovlari E.I. Dinaburg, Yu.M. Suhov, A.E. Mazel, L. Kokvil, K. Kuelske, A. Le Ny, D. Gandolfo, N.N. G‘anixo‘jaev, O‘.A. Roziqov, F.M. Muhamedov, M.M. Raxmatullayev, R.M. Xakimov, G‘.I. Botirov, O.N. Hakimov, N.M. Xatamov, Sh.A. Shoyusupov, F.H. Haydarov, M.A. Rasulova, A.M. To‘xtabayev, M.T. Mahammadaliyev, B.U. Abrayev va boshqa ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan.

A.E. Mazel va Yu.M. Suhovning ishida, $\mathbb{Z}^d$ panjaradagi SOS (solid-on-solid) modeli qaralgan. Bu ishda past haroratlarda termodinamik fazalar tuzilmasini SOS modelining ustuvor asosiy holatlari orqali aniqlaydigan haroratning kritik nuqtasi mavjudligi isbotlangan. Keyinchalik, E.I. Dinaburg va A.E. Mazel ushbu panjarada tashqi maydonli SOS modelini o‘rganib, faza almashishlari sodir bo‘ladigan shartlarni topdilar.

O‘.A. Roziqov va Yu.M. Suhovning ishida, Keli daraxtida SOS modeli qaralgan. Bu ishda uch holatli model uchun kritik haroratdan past haroratlarda kamida uchta translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari mavjudligi isbotlangan. Bundan tashqari, ushbu ishda davriy Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tavsifi berilgan. O‘.A. Roziqov ikkinchi tartibli Keli daraxtida chekli holatli SOS modelini kontur argumenti (Pirogov-Sinay nazariyasi) yordamida o‘rgangan. Bu usul yordamida, yetarlicha past haroratlarda qaralayotgan model uchun Gibbs o‘lchovlarining mavjudligi va ularning soni kamida spin qiymatlar soniga teng bo‘lishi isbotlangan. Keyinchalik, G‘.I. Botirov va O‘.A. Roziqov bu natijalarni ixtiyoriy tartibli Keli daraxti uchun umumlashtirdilar.

K. Kuelske va O‘.A. Roziqov uch holatli SOS modelini ikkinchi tartibli Keli daraxtida ko‘rib chiqdilar. Ular qaralayotgan modelning barcha translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlarini tasnifladilar. Bundan tashqari, bu o‘lchovlar mavjud bo‘lganda chekka yoki chekka bo‘lmaslik shartlarini tekshirdilar. M.M. Raxmatullayev va B.U. Abrayev ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida uch holatli SOS modelini o‘rganishdi va ma’lum translyatsion-invariant Gibbs o‘lchovlaridan foydalangan holda, ba’zi translyatsion-invariant bo‘lmagan Gibbs o‘lchovlarini qurishdi.

Y. Higuchi chegaraviy shartlarni o‘zgartirish orqali Keli daraxtida Ising modeli uchun limit Gibbs o‘lchovlarini qurish usulini ishlab chiqdi. Ushbu yondashuv sistemaning turli xil muvozanat holatlariga mos keladigan turli Gibbs o‘lchovlarini qurishning aniq yo‘lini taqdim etdi. D. Gandolfo, M.M. Raxmatullayev·va O‘.A. Roziqov ikkinchi tartibli Keli daraxtida chekli spin qiymatli Potts modelining translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari uchun chegaraviy shartlar qurdilar.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, ko‘plab ilmiy ishlarga qaramasdan, Keli daraxtida birorta model uchun barcha limit Gibbs o‘lchovlarining to‘liq tavsifi hali olinmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining “Fundamental tadqiqotlar” tarmog‘i doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli solid-on-solid (SOS) modeli uchun translyatsion-invariant, davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganish, limit Gibbs o‘lchovlariga mos chegaraviy konfiguratsiyalarni hosil qilish va faza almashishlarini o‘rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari to‘plamini to‘la tavsiflash, ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida bunday o‘lchovlarning yagona bo‘lmaslik shartlarini topish;

Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida translyatsion-invariant tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlarining to‘la tavsiflash va translyatsion-invariant bo‘lmagan, ikki davriy Gibbs o‘lchovini mavjudligini ko‘rsatish;

Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida ikki davriy tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun faza almashish mavjudligini ko‘rsatish;

Limit Gibbs o‘lchovlari translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari bilan mos keladigan chegaraviy konfiguratsiyalar to‘plamini tasniflash.

Tadqiqotning obyekti: Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli.

Tadqiqot predmeti. Gruppalar va graflar nazariyasi, Gibbs o‘lchovlari nazariyasi, algebra va sonlar nazariyasi, nochiziqli diskret dinamik sistemalar nazariyasi, nochiziqli Markov jarayonlari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida sonlar nazariyasi, funksional analiz, kombinatorika, gruppalar nazariyasi, o‘lchovlar nazariyasi, chiziqli algebra va dinamik sistemalar nazariyasi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari to‘plami to‘la tavsiflandi, ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida bunday o‘lchovlarning yagona bo‘lmaslik shartlari topildi;

Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida translyatsion-invariant tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlari to‘la tavsiflandi hamda translyatsion-invariant bo‘lmagan, ikki davriy Gibbs o‘lchovining mavjudligi ko‘rsatildi;

Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida ikki davriy tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun faza almashish mavjudligi ko‘rsatildi;

Limit Gibbs o‘lchovlari translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari bilan mos keladigan chegaraviy konfiguratsiyalar to‘plami tasniflandi.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Yuqori tartibli tenglamaning barcha musbat ildizlari to‘plamining to‘liq tavsifi statistik mexanikaning tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari sonini aniqlash uchun qo‘llanildi. Tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlari mavjudligini isbotlash uchun funksiya qo‘zg‘almas nuqtalarining xarakterini aniqlaydigan usullar ishlatilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.

Natijalar matematik analiz, funksional analiz, tasodifiy jarayonlar uchun Markov nazariyasi, ehtimollar nazariyasi, diskret dinamik sistemalar va o‘lchovlar nazariyasi usullaridan foydalanib olingan. Olingan natijalar qat’iy matematik mulohazalarga asoslanib isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot ishi natijalarining ilmiy ahamiyati fan va texnika sohalarini rivojlantirishda statistik mexanika masalalarini tadqiq etishda Gibbs o‘lchovlari nazariyasi asosiy vosita ekanligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fizik sistemalar holatining o‘zgarishi tadqiq qilinganligi hamda aloqa tarmoqlari va neyron tarmoqlari nazariyasining ba’zi masalalarini yechish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya tadqiqoti davomida olingan ilmiy natijalar quyidagi ilmiy-tadqiqot loyihalariga tatbiq etilgan:

Keli daraxtida tashqi maydonga ega bo‘lgan uch holatli solid-on-solid (SOS) modeli uchun translyatsion-invariant, davriy Gibbs o‘lchovlari haqidagi natijalardan G0003247 raqamli “Panjarali modellarning renormalizatsiyalangan guruhlari bilan bog‘liq xaotik va aralash *p*-adik dinamik sistemalar” mavzusidagi xorijiy grant loyihasida daraxtlarda SOS va boshqa turdosh modellar uchun chegaraviy konfiguratsiyalarni tadqiq qilishda foydalanilgan (Birlashgan Arab Amirliklari universitetining 2024-yil 26-sentyabrdagi ma’lumotnomasi, BAA). Ushbu ilmiy natijaning qo‘llanilishi daraxtlarda SOS va boshqa turdosh modellar uchun chegaraviy konfiguratsiyalar to‘plamini tasniflash imkonini bergan.

Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida uch holatli translyatsion-invariant tashqi maydonli solid-on-solid (SOS) modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlari to‘plamini to‘liq tavsiflash metodologiyasidan, shuningdek, limit Gibbs o‘lchovlari translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari bilan mos keladigan chegaraviy konfiguratsiyalar to‘plami tasnifidan 374874-2022 fundamental loyihasida “Faza almashish muammolari va kritik hodisalar. Ular tenglamalarining matematik nuqtayi nazari, tez almashishlar va asimptotikalar” nomli fizik tizimlarda fazaviy o‘tish mavjudligini va ushbu tizimning dinamik xususiyatlarini o‘rganishda foydalanilgan (O‘sh Davlat universitetining 2024-yil 5-noyabrdagi 1429-son guvohnomasi, Qirg‘iziston). Ushbu ilmiy natijani qo‘llash diskret vaqtli dinamik tizimlarning asimptotik xususiyatlarini va davriy trayektoriyalarini o‘rganish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 7 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 3 tasi xalqaro va 4 tasi respublika miqyosidagi anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 12 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, jumladan 4 tasi xorijiy va 1 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning hajmi 98 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlarning tahlili berilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi ochib berilgan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ko‘rsatilgan, tadqiqot natijalarining tatbiqi, shuningdek, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari**” deb nomlanuvchi birinchi bobida tartibi ikkidan katta Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlarida olingan natijalar ifoda etilgan.

$\Gamma^k = (V, L)$ bu tartibi $k \geq 1$ va markazi x^0 bo‘lgan cheksiz Keli daraxti, ya’ni har bir uchidan $k+1$ ta qirra chiquvchi siklga ega bo‘lmagan, bog‘langan va yo‘naltirilmagan cheksiz graf. Bu yerda V grafning uchlari to‘plami va L uning qirralari to‘plamidir. Agar x va y uchlarni tutashtiruvchi $<x, y> \in L$ qirra mavjud bo‘lsa, bu uchlarga yaqin qo‘shnilar deyiladi. $<x, x_1>, \ldots <x_{d-1}, y>$ turli qirralar ketma-ketligiga esa x uchdan y uchga olib boruvchi yo‘l deyiladi. Yo‘l yordamida daraxtda metrika aniqlash mumkin, ya’ni x uchdan y uchga olib boruvchi yo‘ldagi qirralar soniga shu uchlar orasidagi masofa deyiladi va u $d(x, y)$ kabi belgilanadi.

Quyidagi $V_n = \{x \in V : d(x, x^0) \leq n\}$, $W_n = \{x \in V : d(x, x^0) = n\}$ to‘plamlarni qaraylik. $x \in W_n$ uchun $S(x) = \{y \in W_{n+1} : d(y, x) = 1\}$ to‘plamni aniqlaymiz. $S(x)$ to‘plamga x uchning to‘g‘ri avlodlari to‘plami deyiladi.

$A \subseteq V$ uchun σ_A konfiguratsiya $x \in A \to \sigma_A(x) \in \Phi = \{0, 1, ..., m\}$ kabi aniqlanadigan funksiyadir. Barcha konfiguratsiyalar to‘plami $\Omega_A = \Phi^A$ bilan ustma-ust tushadi. Biz soddalik uchun $\Omega = \Omega_V$ va $\sigma = \sigma_V$ belgilashlardan foydalanamiz.

Tashqi maydonli SOS modeli quyidagi formal Hamiltonian bilan aniqlanadi

$$H(\sigma) = -J \sum_{\langle x, y \rangle \in L} |\sigma(x) - \sigma(y)| - \sum_{x \in V} \alpha_{\sigma(x), x}, \tag{1}$$

bunda $J \in \mathbb{R}$ ta’sirlashish o‘zgarmasi, $\alpha_x = (\alpha_{0,x}, \alpha_{1,x}, ..., \alpha_{m,x}) \in \mathbb{R}^{m+1}$ tashqi maydon.

Chekli $D \subset V$ soha uchun uning to‘ldiruvchisi $D^c = V \setminus D$ da berilgan chegaraviy konfiguratsiya φ_{D^c} bilan shartli Hamiltonian quyidagicha ifodalanadi

$$H(\sigma_D \mid \varphi_{D^c}) = -J \sum_{\substack{<x,y>, \\ x,y \in D}} |\sigma(x) - \sigma(y)| - J \sum_{\substack{<x,y>, \\ x \in D, y \in D^c}} |\sigma(x) - \varphi(y)| - J \sum_{x \in D} \alpha_{\sigma(x), x}.$$

$B - \Omega$ ning silindrik qism to’plamlaridan hosil bo‘lgan σ-algebra bo‘lsin. (Ω, B) dagi μ ehtimollik o‘lchovi Dobrushin-Lendford-Ryuel tenglamasini qanotlantirsa, unga Gibbs o‘lchovi deyiladi, ya’ni, barcha chekli $D \subset V$ qism to‘plamlar va $\sigma_D \in \Omega_D$ uchun quyidagi tenglik bajarilsa

$$\mu\left(\{\omega \in \Omega : \omega|_D = \sigma_D\}\right) = \int_\Omega \mu(d\varphi) \nu_\varphi^D(\sigma_D),$$

bunda ν_φ^D shartli ehtimollik o‘lchovi:

$$\nu_\varphi^D(\sigma_D) = \frac{1}{Z_{D,\varphi}} \exp\left(-\beta H(\sigma_D \mid \varphi_{D^c})\right).$$

Shuningdek, $\beta = \frac{1}{T}$, $T > 0$ - harorat va $Z_{D,\varphi}$ chegaraviy sharti φ bo‘lgan, D dagi normallovchi kattalik.

$x\in V\mapsto h_x=(h_{0,x},\ldots,h_{m,x})\in\mathbb{R}^{m+1}$ uchun biz (chekli o‘lchamli) Gibbs taqsimotini

$$\mu_n(\sigma_n)=Z_n^{-1}\exp\left\{-\beta H(\sigma_n)+\sum_{x\in W_n}h_{\sigma(x),x}\right\} \tag{2}$$

formula bilan aniqlaymiz, bunda Z_n normallovchi kattalik.

Agar barcha $\sigma_{n-1}\in\Omega_{V_{n-1}}$ lar uchun $\sum\limits_{\substack{\omega_n\in\Omega_{V_n}:\\ \omega_n|_{V_{n-1}}\equiv\sigma_{n-1}}}\mu_n(\omega_n)=\mu_{n-1}(\sigma_{n-1})$ tenglik o‘rinli bo‘lsa, (2) ehtimollik taqsimotlari muvofiq deyiladi. Bu shart ostida, Ω da shunday yagona μ o‘lchov mavjud bo‘ladiki, barcha n va $\sigma_n\in\Omega_{V_n}$ lar uchun $\mu(\{\sigma|_{V_n}=\sigma_n\})=\mu_n(\sigma_n)$ o’rinli. Bunday o‘lchov H Hamiltonian va $x\mapsto h_x$ funksiyaga mos splitting Gibbs o‘lchovi (SGO‘) deyiladi.

Quyidagi belgilashni kiritaylik $\alpha=\{\alpha_x,x\in V\}$.

1-ta’rif. Agar (β,α) juftlik uchun kamida ikkita turli Gibbs o‘lchovlari qurish mumkin bo‘lsa, (β,α) da faza almashishi mavjud deyiladi.

Faraz qilaylik, G_k barpo etuvchilari $a_1,a_2,\ldots,a_{k+1}$ bo‘lgan $k+1$ ta ikkinchi tartibli siklik gruppalarning ozod ko‘paytmasi bo‘lsin.

N.N. G‘anixo‘jayevning ishlaridan quyidagi natija ma’lum

1-tasdiq. Γ^k Keli daraxtining V uchlar to‘plami bilan G_k gruppa orasida o‘zaro bir qiymatli moslik mavjud.

2-ta’rif. K G_k ning qism gruppasi bo‘lsin. Agar barcha $x\in G_k$ va $y\in K$ uchun $h_{yx}=h_x$ bajarilsa, $h=\{h_x:x\in G_k\}$ funksiyalar jamlanmasi K-davriy deyiladi. G_k-davriy h funksiya translyation-invariant deyiladi.

3-ta’rif. Agar SGO‘i h ning K-davriy jamlanmasiga mos bo‘lsa, unga K-davriy deyiladi.

1-teorema. (2) kabi aniqlangan $\mu_n(\sigma_n),n=1,2,\ldots$ ehtimollik taqsimotlari muvofiq bo‘lishi uchun har bir $x\in V\setminus\{x^0\}$ uchun quyidagi vektor tenglama

$$\tilde{h}_x=\tilde{\alpha}_x+\sum_{y\in S(x)}F(\tilde{h}_y;\theta), \tag{3}$$

o‘rinli bo‘lishi zarur va yetarli, bunda

$$\theta=\exp(\beta J),\ \tilde{h}_x=(\tilde{h}_{0,x},...,\tilde{h}_{m-1,x}),\ \tilde{\alpha}_x=(\tilde{\alpha}_{0,x},...,\tilde{\alpha}_{m-1,x}),$$
$$\tilde{h}_{i,x}=h_{i,x}-h_{m,x}+\beta(\alpha_{i,x}-\alpha_{m,x}),$$
$$\tilde{\alpha}_{i,x}=\beta(\alpha_{i,x}-\alpha_{m,x}),\quad i=0,...,m-1,$$

$u=(u_0,...,u_{m-1})\in\mathbb{R}^m$ uchun $F(u,\theta)=(F_0(u,\theta),\ldots,F_{m-1}(u,\theta))$ akslantirish

$$F_i(u,\theta) := \ln \frac{\sum_{j=0}^{m-1} \theta^{|i-j|} \exp(u_j) + \theta^{m-i}}{\sum_{j=0}^{m-1} \theta^{m-j} \exp(u_j) + 1}, \quad i = 0,...,m-1$$

formulalar bilan aniqlanadi.

1-izoh. 1-teoremaga ko‘ra, Gibbs o‘lchovlarini tavsiflash masalasi (3) tenglamalar sistemasining yechimlarini tavsiflashga keltirilishini anglatadi.

(3) tenglamalar sistemasi $m = 2$ uchun quyidagicha bo‘ladi

$$\begin{cases} \tilde{h}_{0,x} = \tilde{\alpha}_{0,x} + \sum_{y \in S(x)} \ln \dfrac{\exp(\tilde{h}_{0,y}) + \theta \exp(\tilde{h}_{1,y}) + \theta^2}{\theta^2 \exp(\tilde{h}_{0,y}) + \theta \exp(\tilde{\tilde{h}}_{1,y}) + 1}, \\ \tilde{h}_{1,x} = \tilde{\alpha}_{1,x} + \sum_{y \in S(x)} \ln \dfrac{\theta \exp(\tilde{h}_{0,y}) + \exp(\tilde{h}_{1,y}) + \theta}{\theta^2 \exp(\tilde{h}_{0,y}) + \theta \exp(\tilde{h}_{1,y}) + 1}. \end{cases} \tag{4}$$

Biz (4) tenglamalar sistemasining translyatsion-invariant (TI) yechimlarini o‘rganamiz, ya’ni, $\tilde{h}_x = \tilde{h} \in \mathbb{R}^2$, $\tilde{\alpha}_x = \tilde{\alpha} \in \mathbb{R}^2, \forall x \in V$ deb faraz qilamiz.

$$\theta_c = \frac{k-1}{\sqrt{k^2 + 6k + 1}}, \ \lambda_1^* = \frac{2\theta^{k+1}}{c_2(\theta)} \text{ va } \lambda_2^* = \frac{2\theta^{k+1}}{c_1(\theta)}$$

belgilashlarni kiritaylik.

2-teorema. $k \geq 2$ bo‘lsin. Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli

- Agar $\theta \geq \theta_c$ yoki $\theta < \theta_c$ va $\lambda \notin \left[\lambda_1^*, \lambda_2^*\right]$ bo‘lsa, kamida 1 ta TISGO‘ i mavjud;
- Agar $\theta < \theta_c$ va $\lambda \in \left\{\lambda_1^*, \lambda_2^*\right\}$ bo‘lsa, kamida 2 ta TISGO‘ lari mavjud;
- Agar $\theta < \theta_c$ va $\lambda \in \left(\lambda_1^*, \lambda_2^*\right)$ bo‘lsa, kamida 3 ta TISGO‘ lari mavjud.

2-izoh. 1-ta’rifga ko‘ra, 2-teoremaning ikkinchi va uchinchi tasdiqlari fazalar almashishi mavjud bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyidagi belgilashlarni kiritaylik

$$\lambda_1(\theta) = \frac{-71\theta^4 + 38\theta^2 + 1 - \sqrt{(1-\theta)(1+\theta)(1-17\theta^2)^3}}{16\theta}, \ \theta_1 = \sqrt{\frac{1}{17}},$$

$$\lambda_2(\theta) = \frac{-71\theta^4 + 38\theta^2 + 1 + \sqrt{(1-\theta)(1+\theta)(1-17\theta^2)^3}}{16\theta}, \ \theta_2 = \sqrt{\frac{1}{3}},$$

$$\lambda_3(\theta) = \frac{\theta^4 + 2\theta^2 + 1}{4\theta}, \ \lambda_4(\theta) = 4\theta\left(1 - 3\theta^2\right), \ \theta_3 = \sqrt{\frac{1}{7}}, \ \theta_4 = \frac{1}{\sqrt{19}}.$$

3-teorema. Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun quyidagi tasdiqlar o‘rinli:

1. Agar $\theta \in (0,\theta_4)$ va $\lambda \in (\lambda_4(\theta),\lambda_2(\theta))$ bajarilsa, aniq yettita TISGO‘lari mavjud bo‘ladi;

2. Agar $\theta \in (0,\theta_4)$ va $\lambda = \lambda_2(\theta)$ bajarilsa, aniq oltita TISGO‘lari mavjud bo‘ladi;

3. Agar $\theta \in (0,\theta_4]$ va $\lambda \in (\lambda_2(\theta),\lambda_3(\theta))$ yoki $\theta \in (\theta_4,\theta_3)$ va $\lambda \in (\lambda_4(\theta),\lambda_3(\theta))$ bajarilsa, aniq beshta TISGO‘lari mavjud bo‘ladi;

4. Agar $\theta \in (0,\theta_4)$ va $\lambda \in (\lambda_1(\theta),\lambda_4(\theta)]$ yoki $\theta \in [\theta_4,\theta_1)$ va $\lambda \in (\lambda_1(\theta),\lambda_2(\theta))$ bajarilsa, aniq beshta TISGO‘lari mavjud bo‘ladi;

5. Agar $\theta \in (0,\theta_1)$ va $\lambda = \lambda_1(\theta)$ yoki $\theta \in [\theta_4,\theta_1)$ va $\lambda = \lambda_2(\theta)$ bajarilsa, aniq to‘rtta TISGO‘lari mavjud bo’ladi;

6. Agar $\theta \in (0,\theta_1)$ va $\lambda \in (0,\lambda_1(\theta))$ yoki $\theta \in (0,\theta_3)$ va $\lambda = \lambda_3(\theta)$ yoki $\theta \in (\theta_4,\theta_1)$ va $\lambda \in (\lambda_2(\theta),\lambda_4(\theta)]$ yoki $\theta \in [\theta_2,\theta_1)$ va $\lambda \in (0,\lambda_4(\theta))$ yoki $\theta \in [\theta_1,\theta_3)$ va $\lambda = \lambda_4(\theta)$ bajarilsa, aniq uchta TISGO‘lari mavjud bo‘ladi;

7. Boshqa hollarda yagona TISGO‘i mavjud bo‘ladi.

3-izoh. 3-teoremada fazalar almashishi sodir bo‘ladigan barcha sohalar topilgan.

Ikkinchi bob **“Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlari”** deb nomlanadi va Keli daraxtida translyatsion-invariant va $G_k^{(2)}$-davriy tashqi maydonli uch holatli SOS modelining davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganishga bag‘ishlanadi.

Biz uch holatli TI tashqi maydon ta’siridagi SOS modelining davriy Gibbs o‘lchovlarini tatqiq qilamiz. Buning uchun, (4) funksional tenglamaning davriy yechimlarini tashqi maydon TI bo‘lgan holda o‘rganamiz.

Ma’lumki, $G_k^{(2)}$ gruppa G_k ning uzunligi juft bo‘lgan barcha so‘zlaridan tashkil topgan qism gruppasidir.

4-teorema. K G_k ning chekli indeksli normal qism gruppasi bo‘lsin. U holda TI tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun har bir K-davriy SGO‘ yoki TI, yoki $G_k^{(2)}$-davriy bo‘ladi.

$I = \{z = (z_0, z_1, t_0, t_1) \in R^4 : \lambda_0 = 1; z_0 = t_0 = 1\}$ belgilashni kiritaylik.

5-teorema. TI tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun I invariant to‘plamda quyidagi tasdiqlar o‘rinli

- $\theta = 1$ uchun barcha $G_k^{(2)}$-davriy SGO‘lari TISGO‘lari bilan ustma-ust tushadi;
- $k \le 5$ uchun barcha $G_k^{(2)}$-davriy SGO‘lari TISGO‘lari bilan ustma-ust tushadi;
- $k > 5,\ \theta < 1$ uchun barcha $G_k^{(2)}$-davriy SGO‘lari TISGO‘lari bilan ustma-ust tushadi;
- $k > 5,\ \theta > 1$ uchun

1) Agar $\dfrac{k\zeta(\theta^2-1)(x^*)^{k-1}}{(\theta(x^*)^k+\theta^2+1)^2} > 1$ shart bajarilsa, u holda kamida uchta $G_k^{(2)}$-

davriy SGO‘lari mavjud bo‘ladi;

2) Agar $\frac{k\zeta(\theta^2-1)(x^*)^{k-1}}{(\theta(x^*)^k+\theta^2+1)^2}\le 1$ shart bajarilsa, u holda kamida bitta $G_k^{(2)}$-davriy SGO‘ mavjud bo’ladi, bunda x^* quyidagi tenglamaning yechimidir

$$x=\zeta\frac{x^k+2\theta}{\theta x^k+\theta^2+1}.$$

Endi Keli daraxtida $G_k^{(2)}$-davriy tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun $G_k^{(2)}$-davriy Gibbs o‘lchovlarini o‘rganamiz. Buning uchun, (4) tenglamalar sistemasini $G_k^{(2)}$-davriy tashqi maydon ta’sirida tatqiq qilamiz.

$\tilde{h}=\{\tilde{h}_x : x\in G_k\}$ va tashqi maydonning $G_k^{(2)}$-davriy to’plami, mos ravishda, quyidagi ko‘rinishga ega:

$$\tilde{h}_x=\begin{cases}\tilde{h}_0, \text{ agar } x\in G_k^{(2)},\\ \tilde{h}_1, \text{ agar } x\in G_k\setminus G_k^{(2)},\end{cases}\quad \tilde{\alpha}_x=\begin{cases}\tilde{\alpha}_0, \text{ agar } x\in G_k^{(2)},\\ \tilde{\alpha}_1, \text{ agar } x\in G_k\setminus G_k^{(2)}.\end{cases}$$

$G_k^{(2)}$-davriy tashqi maydon ta’sirida (4) tenglamalar sistemasining $G_k^{(2)}$-davriy yechimlarini topish masalasini $I=\{z=(z_0,z_1,t_0,t_1)\in\mathbb{R}^4 : \lambda_0=1; \mu_0=1; z_0=t_0=1\}$ invariant to‘plam ustida $\psi(z)=\lambda_1 f\left(\mu_1 f\left(z\right)\right)$ funksiyaning qo‘zg‘almas nuqtalarini topish masalasiga keltirish mumkin, bunda

$$f\left(z\right)=\left(\frac{z+2\theta}{\theta z+\theta^2+1}\right)^k.$$

z^* qiymat $z=\psi\left(z\right)$ tenglaming yechimi bo‘lsin.

6-teorema. $k\ge 2$ tartibli Keli daraxtida $G_k^{(2)}$-davriy tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun J to‘plamda agar $\psi'(z^*)>1$ shart bajarilsa, u holda kamida uchta SGO‘lari mavjud bo‘ladi, ya’ni faza almashishi sodir bo‘ladi.

Uchinchi bob **“Keli daraxtida uch holatli SOS modeli uchun chegaraviy shartlar”** deb nomlanib, chegaraviy shartlarga nisbatan limit Gibbs o‘lchovlari TISGO‘lari bilan mos keladigan chegaraviy konfiguratsiyalar to‘plamini olishga bag‘ishlangan.

$\Gamma^k=(V,L)$ tartibi $k\ge 2$ bo‘lgan Keli daraxti bo‘lsin. Agar x^0 va t uchlarni bog‘lovchi yo‘l s $(s\ne t)$ orqali o‘tsa, biz $s\to t$ kabi yozamiz. Agar $s\to t$ va s,t uchlar yaqin qo‘shni bo’lsa, t uch s uchning to‘g‘ri avlodi deyiladi va $s\to_1 t$ belgilashidan foydalanamiz.

A to‘plam V ning chekli qism to‘plami va $\omega\in\Omega$, $\sigma\in\Omega_A$ bo’lsin. Berilgan ichki konfiguratsiya σ va chegaraviy konfiguratsiya ω uchun A dagi SOS ta’sir energiyasi

$$H_A^{\omega}(\sigma)=-J\sum_{t,s\in A:\langle t,s\rangle}|\sigma(t)-\sigma(s)|-J\sum_{t\in A,s\in\partial A:\langle t,s\rangle}|\sigma(t)-\omega(s)|$$

kabi aniqlanadi, bunda $J \in \mathbb{R}$ ta'sirlashish o'zgarmasi. Ehtimollik o'lchovi

$$P_A^{\omega}(\sigma) = [Z_A^{\omega}]^{-1} \exp[-H_A^{\omega}(\sigma)], \ \sigma \in \Omega_A$$

kabi aniqlanadi, bunda $Z_A^{\omega} = \sum_{\tilde{\sigma} \in \Omega_A} \exp[-H_A^{\omega}(\tilde{\sigma})]$.

4-ta'rif. Agar ta'yinlangan J va mos $\omega \in \Omega$ uchun shunday chekli qism to'plamlarning o'suvchi $\{V_n\}$ ketma-ketligi mavjud bo'lib, $n \to \infty$ da $V_n \nearrow V$ va $P^{\omega} = \text{w-}\lim_{n\to\infty} P_{V_n}^{\omega}$ (o'lchovlarning kuchsiz yaqinlashishi) mavjud bo'lsa, u holda P^{ω} – ω chegaraviy shartga ega limit Gibbs o'lchovi deyiladi.

Faraz qilaylik, $c^l(\omega) = \sum_{s: t \to_1 s} |l - \omega(s)|$, $l = 0, 1, \ldots, m$ miqdor $t \in V \setminus \{x^0\}$ uchlarga bog'liq bo'lmasin.

$m = k = 2$ bo'lsin. Quyidagi tenglamani qaraylik

$$h_1 = 2\ln \frac{\exp(h_1) + 2\theta}{\theta^2 + 2\exp(h_1) + 1}. \tag{5}$$

1-lemma. Shunday $\theta_c \approx 0.1414$ mavjudki, quyidagi tasdiqlar o'rinli

- Agar $\theta < \theta_c$ bo'lsa, u holda (5) tenglama uchta $\alpha_3(\theta) < \alpha_2(\theta) < \alpha_1(\theta)$ yechimlarga ega bo'ladi;
- Agar $\theta = \theta_c$ bo'lsa, u holda (5) tenglama 2 ta $\alpha_3(\theta) = \alpha_2(\theta) < \alpha_1(\theta)$ yechimlarga ega bo'ladi;
- Agar $\theta > \theta_c$ bo'lsa, u holda (5) tenglama yagona $\alpha_1(\theta)$ yechimga ega bo'ladi.

Quyidagi to'plamlarni belgilaylik

$$\mathbb{D} = \{\omega \in \Omega : c^0(\omega) = c^2(\omega)\}, \ \mathbb{D}^+ = \{\omega \in \mathbb{D} : J(c^1(\omega) - c^2(\omega)) > \alpha_2\},$$

$$\mathbb{D}^0 = \{\omega \in \mathbb{D} : J(c^1(\omega) - c^2(\omega)) = \alpha_2\}, \ \mathbb{D}^- = \{\omega \in \mathbb{D} : J(c^1(\omega) - c^2(\omega)) < \alpha_2\}.$$

7-teorema. (i) Agar $\theta > \theta_c$ va $\omega \in \mathbb{D}$ bo'lsa, u holda $P^{\omega} = \mu_1(\theta)$.

(ii) Agar $\theta = \theta_c$ bo'lsa, u holda $P^{\omega} = \begin{cases} \mu_2(\theta), \text{ agar } \omega \in \mathbb{D}^0 \cup \mathbb{D}^-, \\ \mu_1(\theta), \text{ agar } \omega \in \mathbb{D}^+. \end{cases}$

(iii) Agar $\theta < \theta_c$ bo'lsa, u holda $P^{\omega} = \begin{cases} \mu_3(\theta), \text{ agar } \omega \in \mathbb{D}^-, \\ \mu_2(\theta), \text{ agar } \omega \in \mathbb{D}^0, \\ \mu_1(\theta), \text{ agar } \omega \in \mathbb{D}^+. \end{cases}$

μ_1 TISGO'i uchun chegaraviy konfiguratsiyalar quraylik. Agar $\theta \le \theta_c$ bo'lsa, biz $\omega \in \mathbb{D}^+$ kabi olishimiz kerak, ya'ni, $J(c^1(\omega) - c^2(\omega)) > \alpha_2$, $c^0(\omega) = c^2(\omega)$. U holda, chegaraviy konfiguratsiya sifatida $c^0(\omega) = c^2(\omega) = 2$ va $c^1(\omega) = 1$ shartlarni qanoatlantiradigan har qanday ω konfiguratsiyani olishimiz mumkin.

XULOSA

Dissertatsiya tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant, davriy splitting Gibbs o‘lchovlarini o‘rganishga, shuningdek, ikkinchi tartibli Keli daraxtda modelning ayrim TISGO‘lari uchun chegaraviy shartlarni qurishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotda quyidagi asosiy natijalarga erishildi:

1. Ikkinchi tartibli Keli daraxtida tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari to‘plami to‘la tavsiflandi, ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida bunday o‘lchovlarning yagona bo‘lmaslik shartlari topildi;

2. Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida translyatsion-invariant tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun davriy Gibbs o‘lchovlari to‘la tavsiflandi hamda translyatsion-invariant bo‘lmagan, ikki davriy Gibbs o‘lchovining mavjudligi ko‘rsatildi;

3. Ixtiyoriy tartibli Keli daraxtida ikki davriy tashqi maydonli uch holatli SOS modeli uchun faza almashish mavjudligi ko‘rsatildi;

4. Limit Gibbs o‘lchovlari translyatsion-invariant splitting Gibbs o‘lchovlari bilan mos keladigan chegaraviy konfiguratsiyalar to‘plami tasniflandi.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I.ROMANOVSKIY

CHIRCHIK STATE PEDAGOGICAL UNIVERSITY

KARSHIBOEV OBID SHERKUL UGLI

BOUNDARY CONFIGURATIONS FOR GIBBS MEASURES OF SOME MODELS DEFINED ON LATTICES

01.01.01 – Mathematical analysis

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT – 2025

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the Ministry of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2021.3.PhD/FM622.

Dissertation has been prepared at Chirchik State Pedagogical University.

The abstract of the dissertation is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (resume)) on the website (http://kengash.mathinst.uz) and the "ZiyoNet" information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisors:	**Rahmatullaev Muzaffar Muhammadjanovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, senior researcher
Official opponents:	**Botirov Golibjon Isroilovich** Doctor of Physical and Mathematical Sciences, senior researcher
	Haydarov Farhod Halimjonovich Doctor of Physical and Mathematical Sciences, docent
Leading organization:	**National University of Uzbekistan**

Defense will take place on "11" February 2025 at 17:00 at the meeting of Scientific Council DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovsky. (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+998 78) 207 91 40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertation is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (registered for №198). (Address: University str. 9, Almazar district, Tashkent, 100174, Uzbekistan, Ph.: (+998 78) 207 91 40).

Abstract of dissertation sent out on "24" January 2025 year.
(Mailing report № 2 on "24" January 2025 year).

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI V.I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI

U.A. Rozikov
Chairman of Scientific Council
on award of scientific degrees,
DSc., Academician

J.K. Adashev
Scientific secretary of Scientific Council
on award of scientific degrees,
DSc., senior researcher

U.U. Jamilov.
Chairman of scientific Seminar under
Scientific Council on award of scientific degrees,
DSc., senior researcher

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Actuality and demand of the theme of dissertation. A number of scientific and practical tasks dedicated to the study of the thermodynamic properties of physical and biological systems, conducted on a global scale, are often led to the investigation of models of statistical mechanics. Gibbs measures are the main tool for studying the theory of phase transitions of statistical mechanics models. It is also important to apply Gibbs measures in solving problems in various fields of science and technology, such as chemistry, service theory, and materials science. The problem of fully describing the set of all Gibbs measures for classical models of statistical mechanics has not been fully solved for any model to date. Therefore, enriching the set of Gibbs measures for such models, including finding the set of boundary configurations for Gibbs measures of some models defined on the lattices, is one of the urgent tasks.

Nowadays, one of the urgent tasks is to demonstrate the existence of translation-invariant and periodic Gibbs measures corresponding to Hamiltonians with external fields for lattice systems and to fully describe the set of such Gibbs measures. Determining the non-uniqueness of translation-invariant and periodic measures in the set of Gibbs measures for a given physical model is of great importance in the theory of phase transitions of statistical physics. In this regard, finding all translation-invariant and periodic Gibbs distributions for a given Hamiltonian, classifying the set of boundary configurations where the limit Gibbs measures correspond to the translation-invariant splitting Gibbs measures, is one of the priority scientific studies.

In our country, attention is being paid to areas of scientific and practical application of fundamental sciences, which are one of the main pillars of development. In particular, in recent years, significant results have been achieved in determining the existence of translation-invariant, periodic, and non-periodic Gibbs measures for classical models of statistical mechanics on the Cayley tree, as well as in enriching the set of such measures. Conducting scientific research at the level of international standards in the priority areas of “Algebra and its applications, differential equations and its applications, nonlinear systems, dynamical systems, mathematical modeling, stochastic analysis, functional analysis, medical and biological informatics, computational mathematics” are defined as the main tasks and areas of activity of mathematical science[1]. To enforce the resolution, it is important to develop the theory of phase transitions for classical models of statistical mechanics with the aim of using scientific results in related fields of science.

The subject and object of the research of this dissertation are in line with tasks identified in the Decrees of the President of the Republic of Uzbekistan UP-4947 of February 7, 2017 “On the strategy of action for the further development of the

[1] Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated July 9, 2019 № PQ-4387 “On state support for the further development of mathematics education and subjects, as well as measures to fundamentally improve the activities of the Institute of Mathematics named after V.I. Romanovsky of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan”.

